

MUALLIFI SINGARI DILBAR SHE’RLAR...

**Laylo Sharipova
BuxDU professori v.b., f.f.d.**

Annotatsiya: O’zbek she’riyatida shoiralar shoirlardan kam, ammo ularning ijodi she’riyatimizdan munosib o’rin egallay olgan. Shoiralar ijodida Vatan, el dardi, muhabbat, sadoqat, hijron, farzand mavzusi keng yoritilgan. G.Jo’rayeva she’riyatida o’zbek ayolining o’ziga xos hayot tarzi, betakror fazilatlari badiiy in’ikosini topgan. Maqolada shu haqda fikr boradi.

Kalit so‘zlar:she’riyat, tavze’, tarse’, folklor, radd ul matla’, shoira, qofiya, band, mavzu, muvozana.

O’zbek she’riyatida shoiralar ijodi ham o’z orniga ega she’riyat sifatida e’tirofga munosib, ammo ular shoirlardan ko’ra km ekanliklari haqiqat. Mumtoz o’zbek she’riyatida Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshod Barno singari shoiralar ijod qilgan bo’lsa, yangi o’zbek she’riyatida Zulfiya, Saida Zunnunova shoira sifatida tanildi. Vaqt o’tib ularning safini O.Hojiyeva, H.Xudoyberdiyevlar to’ldirdi. Bu safda shoira Gulchehra Jo’raeva ham bor. Shoiraning she’riyati o’zbek ayolining fe'l-atvoriga xosliklarni namoyish qilishi bilan alohidalik kash etadi. Shoira yozadi:

Qalbim qirg’oqda qoldi,
Qalbim yiroqda qoldi,
Qalbim firoqda qoldi.

Shu uch satrda tovush takrori – tavze’, tarse’, muvozana, anafora kabi badiiy san`atlar qo’llangan. Bu shoiraning mahoratiga dalildir. Mumtoz adabiyotda qo’llanadigan radd ul matla’ san`atiga [1.141.] monand tarzda yangi she’riyatda birinchi banddagi ma’lum satrlarning oxirgi bandda takror keltirilishi holati uchraydi. Shoira yuqoridagi satrlarni so’nggi bandda takror keltiradi. Birinchi va oxirgi band satrlari bir xil, ammo o’rinlari almashtirilgan:

Qalbim firoqda qoldi,
Qalbim yiroqda qoldi,
Qalbim qirg’oqda qoldi.

Ko’rinadiki, shoira birinchi va uchinchi satr o’rinlarini almashtirgan. Bu o’ziga xoslik fikrni teranlashtirishga xizmat qila olgan. Birinchi bandda shoira qalbining qirg’oqda qolganini aytar ekan, qalb yiroqda, oqibat firoqda ekanini aytadi. Oxirgi bandda shoira firoqda qolganini, yiroqlik yuzaga kelganini, bunga qirg’oq aybdorligini ta’kidlay olgan. Folklorda qirg’oq ayrılıqni ifodalashda detal bo’lib xizmat qiladi, ya’ni daryo ayrılıq ramzi bo’lib[3.186], sevishganlar ikki qirg’oqda qoladilar. Ijodkor nega birinchi bandni yoki satrni she’r so’ngida takrorlaydi? Ba’zan ruhiyati ifodasining noaniqligi oldidagi ilojsizlikdan, ba’zan yakunga undan balandroq xulosa topmaganidan shunday usulni qo’llaydi. “Qalbim qirg’oqda qoldi” she’rida satrlar o’rnini almashtirish orqali shoira ikki yutuqqa ega bo’lgan: “qirg’oq” va “firoq” so‘zlarini ayrılıqni ifodolovchi so‘zlar sifatida qo’llay olgan va folkloriga xoslikdan foydalana bilgan, ayni damda, lirk qahramon holatini bo’rttirishga erishgan. Bir

jihat haqki, qalam ahli badiiy san`atlarni qo'llashim kerak degan maqsad bilan ijod qilmaydi. Ilhom shiddati, tafakkur qudrati, xayolot olami bo'lsa va ular mutanosib kelsa, go'zal satrlar tug'iladi. She`r to'qilsa, tug'ilgani kabi tabiiy, samimiy, diltortar, dilbar bo'lmaydi. Eng muhimi, to'qilgan she`r ruhdan mosuvodir. Ha, insonda ruh – jon bo'lgani kabi she`rda ham ruh bo'ladi. G.Jo'raeva she`rlarida o'ziga xos ruh bor. Shoira she`r to'qimaydi. Har bir she'r uning yurak tandirida pishgan non kabi cho'g'lanib turadi:

Dengiz – mening tiniq ko'zgumdir,

Dengiz – mening xuddi o'zimdir.

Kipriklarim – qayinlarday zich,

Shabnamlarda titraydi sevinch.

Yuragimda toshqin tuyg'ular,

Quvonchimdan ko'kka ulg'ayar.

Shoira dengiz va o'z "men"ligini solishtiradi. Inson va dengizdagи uyqashliklarni topib, she`rxon uchun kutilmagan xulosalar qiladi. G.Jo'raevada nodir iste`dod bor edi. U dilbar shoira edi. Ammo hashamlar uchun vaqt sarflamadi, minbarlardan turib to'lib-toshib she`r o'qishdan ko'ra onalik burchi, ayollik baxtini ilgari qo'ydi:

Onalik – shunaqa,

Onalik qiyin.

She`r ham farzandim, arzanda bolam.

Ammo...

Bolam yig'laganda ijod bir tiyin,

Qog'ozim ustida qoladi qalam!

Aslida ham shunday: o'zbek shoirasi shunday bo'lishi kerak – kamtar, sodda, samimiy, jonfido. Shu sabab musavvir o'g'li Firdavs Fayzullo 2006-yilda shunday yozdi: "Oyijonim! Ona – Chinorim mening, ilhom to'la tomiringizning biri meni hayot va ijodga bog'lagani uchun sizdan bir umr minnatdorman!" Ustoz shoira G.Jo'raeva onalik, ayollik burchini risoladagiday qilib bajarishni o'zining Vatanga sadoqati deb hisobladi. O'zbekning fidoyi onalariga xoslik – bu! Ammo shoira bo'lgani bois, iste`dodli bo'lgani uchun shu tuyg'ularning barini she`rga aylantira oldi hamki, bu Gulchehra opaning boshqa onalardan farqli jihat edi. Shoiraning "Sen o'zing", "Bolam va qalam", "Kichkintoy" kabi she`rlari fikrimizni dalillaydi. "Chaqaloqlar – qo'ng'iroqlar" she`rlar turkumini o'qib, bunday turkum she`rni o'zbek she`riyatida boshqa uchratmaganimni tuydim. Shuning o'zi shoira ijodining takrorlanmas ranglarga, iforga egaligini ko'rsatadi. Ikkilik, uchlik, to'rtlik, beshlik, demakki, bandning barcha ko'rinishlaridan unumli foydalangan shoira qofiyaning she`riyatdagи o'rnini chuqur anglaydi. Ilhom buloq singari ko'nglidan otolib, to'q qofiyalar o'z-o'zidan oqib kelaveradi, satrlarni bezaydi. Mazmunni shaklga, shaklni mazmunga qurban qilmagan shoira mahorati yosh qalamkashlarga saboqdir.

Shoiraning 1964-yilda yozgan she'ri xuddi shu kecha-kunduz uchun yozilganday. Lirk qahramon har oqshom qo'shni xonadon bolalarining jo'shqin bahslarini tinglab hayratlanadi. Ular Mars haqida, samo sirlari haqida o'zlari ko'rgan kabi bahs yuritishadi. Gulchehra opa bu holatdan nekbin shoiraga xos, ko'tarinki xulosa chiqaradi:

Kulgu, rohat bilan tinglayman uzoq,

Olim bolalikka boqqanimcha lol.

Ular yoshida men o'ynab qo'g'irchoq,
O'yimga kelmapti fazo, istiqbol!
Jajji aql bilan ko'zlab kattani,
Ertamiz haqida o'ylar kichik ham.
Shular taqdirida oqil Vatanim,
Shularning qo'lida kelajak ko'rakam.

Aslida bu satrlar tafakkurli shoiraning kelajakni ko'ra olgani, ta'birk joiz bo'lsa, istiqlolning poydevorini qo'yadigan bolalarni tarbiyalashdagi hissasi ham edi. Shoir she'riyati milliy ruh bilan sug'orilgan, siyratida insoniylik mujassam etilgan she'riyatdir. She'rlarida hayotidan nolimasligining o'zi qalamkashlarga saboqdir. O'zbekiston Qahramoni E.Vohidov Gulchehra Jo'rayeva she'riyatiga yuksak baho berib, "She'riyattingiz – boqiy she'riyat", – deydi. Bu yetuk shoirning o'ziga davradosh shoiralarga e'tibori, mehri, ayni damda, ijod mashaqqatini chuqur anglagan shoirning o'ziga xos dilbar she'riyatga nisbatan e'tirofi hamdir. Gulchehra Jo'raeva she'riyatining mavzular olami rang-barang. Muallifi singari halim-hazin, jiddiy, ayni damda, g'ururli, iyomonda sobit she'rlarki, she'rxonni ko'ngliga daldar, ruhiga madad, tafakkuriga qanot bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014. – B.141.
2. Jo'rayeva G. Yillarim – yo'llarim. – Toshkent: adabiyot va san'at, 2000. – 168 b.
3. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 308 b.
4. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
5. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.
6. Sharipova L. BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA'В ZARSHUNOSI //Konferensiylar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-70.
7. Шарипова Л., Низомова К. ЎЗИГА ХОС ШЕЪРИЯТ //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 19-21.
8. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.
9. Sharipova L. Замонавий шеъриятда ёмғир образи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
11. Sharipova L., Boboxo'jayeva L. A. XALQ OG 'ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA'SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.

12. Sharipova L. ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG ‘Z //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Conference Proceedings I. – C. 387-391.
13. Sharipova L. Literary yor-yor //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. I. – №. 4. – C. 218-222.
14. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o ‘zbek she’riyatida folklorizm //Toshkent: Fan. – 2011. – T. 153.
15. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – C. 4753-4767.
16. Muhammadova M. HUMOYUN MIRZO NISORIY TALQINIDA: Mahbuba Muhammadova Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
17. Mahbuba M. Nisoriyning" Muzakkiri ahbob" tazkirasida ayrim janr va badiiy san'atlar xususiyati //Karabük-2020.
18. Mo'minovna M. M. SECTION: HISTORY SCIENCE //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – C. 29.
19. Mo'minovna M. M. NISORIY DO ‘ST MUHAMMAD SULTON VA UNING IJODKOR SIFATIDAGI QIRRALARI HAQIDA //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 3. – №. 29. – C. 348-350.
20. Makhbuba M. Muzakkiri Ahbob" Fable By Nisari And Its Role In Literature Studies //European Journal of Business and Social Sciences. – 2019. – T. 7. – №. 10. – C. 111-116.
21. Sanobar A., Mahbuba M. O’LMAS UMARBEKOVNING”ODAM BO’LISH QIYIN”ASARINING BADIY TAHLILI //ZAMONAVIY TA’LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 74-80.
22. Latipov H. R. ALISHER NAVOI ON LOVE, ENLIGHTENMENT AND AWARENESS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – C. 551-556.
23. Ramazonovich L. H. Souls striving to god or from the world of wise people //Journal of Social Sciences and Humanities Research. – 2018. – T. 6. – №. 04. – C. 14-18.
24. Ramazonovich L. H. Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs //International Journal of Formal Education. – 2024. – T. 3. – №. 4. – C. 20-28.
25. Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 46–53. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479>
26. Ramazonovich, L. H. . (2024). Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 20–28. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2474>
27. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – C. 913-915.
28. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE’RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – T. 13. – №. 3. – C. 27-30.

29.Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 100.

30.Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 5. – C. 214-221.

31.Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – T. 15. – №. 15.

32.Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).

33.Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.

34.Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – T. 16. – №. 16.

35.Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – T. 16. – №. 16.

36.Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

37.Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrası tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.

38.Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.

39.Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479>

40.Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 858-863. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 858-863.

41.Umurova N. INTERPRETATION OF HIS IDEAS IN THE WORK OF AHMAD YASSAVIY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 45-49

42.Raximovna U. N. TASAVVUF TA'LIMOTI VA G 'ARB ADABIYOTI //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – C. 117-119.

43.Raximovna, Umurova Nigina. “Beshinchi tog” asarida Sharq falsafasi.” Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. 2023.

44.Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on “The Fifth Mountain” By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 2.

45.Umurova N. “IQRORNOMA” VA ISLOM FALSAFASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.

46. Darmon, Uraeva, Rajabova Rano, and Rajabov Dilshod. "The stylization of prose tales in Uzbek children's literature." *Religación: Revista de Ciencias Sociales y Humanidades* 4.18 (2019): 170-174.

47. Rajabova, Rano. "Ўзбек Болалар Адабиётида Фольклор Жанрлари Стилизацияси." *Центр научных публикаций* (buxdu.uz) 8.8 (2021).

48. Rajabova, Rano. "Адабий топишмоқларда халқ топишмоқларига хос жанрий белгиларнинг ифодаси." *Центр научных публикаций* (buxdu.uz) 3.3 (2021).

49. Raxmatovna, Torayeva Umriniso, and Rajabova Rano Zaripovna. "Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.2S (2023): 3454-3459.

50. Rajabov, Dilshod Zaripovich. "Radif in uzbek folk songs." *Theoretical & Applied Science* 10 (2018): 316-318.

51. Juraev, Mamatkul, Dilshod Rajabov, and Shahodatbonu Imomnazarova. "WEDDING SONG GENRE IN THE CEREMONY LYRICS OF THE CENTRAL ASIAN TURKISH PEOPLES." *Theoretical & Applied Science* 7 (2020): 467-473.

52. Rajabov, Dilshod Zaripovich. "O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA RADIFNING IFODA SHAKLLARI." *Konferensiylar | Conferences*. Vol. 1. No. 4. 2024.